



## **SAIDA ZUNNUNOVA QISSALARIDA AYOLLAR OBRAZI**

**Ismatillayeva Moxinur Sayfiddin qizi**  
*BuxDU Ingliz adabiyotshunosligi va  
 Tarjimashunoslik kafedrasasi doktoranti*  
[mixinur.ismatillayeva98@gmail.com](mailto:mixinur.ismatillayeva98@gmail.com)

+998945482011

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Saida Zunnunova va uning ijodida asosiy o‘rin tutgan qissalari tahlil qilinib, ulardagi asosiy g‘oya va qarashlar aks ettirilgan. Zunnunovaning “Olov”, “Och yuzingni”, “Yangi direktor”, “Odamlar orasida” qissalarining umumiy va farqli jihatlari ham o‘rganilib, tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Qissa, g‘oya, qarash, umumiy jihat, farqli jihat, tahlil qilmoq, uslub, ayollar obrazi.

### **ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В РАССКАЗАХ САИДЫ ЗУННУНОВОЙ**

**Аннотация.** В данной статье анализируются рассказы Саиды Зуннуновой и ее основное творчество, отражаются в них основные идеи и взгляды. Также были изучены и проанализированы общие и разные стороны рассказов Зуннуновой «Олов», «Открой лицо», «Новый директор», «Среди людей».

**Ключевые слова:** Сюжет, идея, взгляд, общий аспект, иной аспект, анализ, стиль, образ женщины.

### **THE IMAGE OF WOMEN IN THE STORIES OF SAIDA ZUNNUNOVA**

**Annotation.** This article analyzes the stories of Saida Zunnunova and her main work, and reflects the main ideas and views in them. Common and different aspects of Zunnunova's short stories "Olov", "Open your Face", "New Director", "Among People" were also studied and analyzed.

**Key words:** Story, idea, view, general aspect, different aspect, analyze, style, image of women.

### **KIRISH**

O‘zbek adabiyotida ayollar mavzusi XX asrdan boshlab keng yoritila boshlangan bo‘lib, deyarli barcha yozuvchilar o‘z nasriy asarlarida ayollar obrazlariga alohida e’tior qaratib jonlantirishga harakat qilishgan. Ayollar endilikda syujetni rivojlantiruvchi yoki qo‘shimcha

qahramonlar sifatida emas , balki ichki dunyosi, ruhiyati bilan asarda asosiy qahramonni gavdalantira oladigan obrazlarda tasvirlanadigan bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotiga sezilarli darajada hissa qo‘shib, o‘ziga xos uslubi orqali ajralib turadigan va ayollar obraziga alohida yondashgan qalamkashlardan biri Saida Zunnunovadir. Saida Zunnunova nafaqat o‘zining she’rlari bilan she’riyat muxlislari e’tiborini qozongan, balki nasriy asarlari bilan ular qalbidan chuqur joy ham egallagan.Uning yashab ijod qilgan davri ikkinchi jahon urushi va Sobiq sovet ittifoqi davomida bo‘lganligi sababidan ham urush va o‘sha davrdagi og‘ir kunlar adibaning deyarli barcha qissalarida o‘z aksini topgan. Saida Zunnunova o‘zbek xotin-qizlari hayotini o‘rganish, ular turmushidagi mashaqqatli jihatlar va murakkabliklarga jamoatchilik e’tiborini jalb qilish niyatida oila va muhabbat mavzusida bir qancha hikoya va qissalar yozdi.<sup>151</sup>

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Adibaning “Olov”, “Och yuzingni”, “Yangi direktor”, “Odamlar orasida” va o‘sha davrda qatag‘onga uchragan “So‘qmoqlar” qissalarida nafaqat o‘sha davrda dolzarb bo‘lgan mavzular balki XXI asr uchun ham aktual masalalar aks ettirilgan. Saida Zunnunova qissalarning bosh qahramonlari ayollar bo‘lib, adiba ularni bejizga asosiy qahramon etib gavladantirmaganligi o‘quvchilarni haytarga solishi tabiiy. Negaki, asar markazidan o‘rin egallagan qahramonlarimizda nafaqat ayollar fitratiga xos jihatlar, balki erkaklarga xos jasorat, mardlik, halollik, adolatparvarlik singari fazilatlar ham mujassamlashgan.

“Yangi direktor” qissasidagi Saodatxon Sultonovaning o‘z kasbiga sadoqati va yurti manfaatini, yosh avlod kelajagini ko‘zlab qilgan harakatlari, qanday qiyinchiliklar uchramasin ularni yengish uchun qilgan kurashi hech bir kitobxonni ta’sirlantirmay qolmaydi. Saodatxonning qilgan islohotli sa'y-harakatlari tabiiyki eskicha qarashga ega bo‘lgan va yangiliklarni yaxshi qarshilay olmagan, kamchiliklari “yangi direktor” Saodatxon tomonidan yuziga solingan hamkasblariga erish tuyiladi. Barotov va Obidov ayol va o‘zidan yosh rahbardan tanbeh eshitishganligi bois rayonodagi tanishlari orqali Saodatxonidan qutilish yo‘lini izlashadi. Uning diqqatini chalg‘itish maqsadida turmush o‘rtog‘I komiljon bilan bog‘liq mish-mishlar ham tarqatishadi. Sultonova esa hech ham o‘z burchini unutmagan holatda maktabdagi “oqsoqlik”larni tuzatishga intiladi. Hali maktabni bitirmagan Zuhrani turmushga berishmoqchi ekanligini eshitib darhol bu vaziyatga yechim topishga intiladi va ijobiy natija olmagunicha qat’iyat bilan kurashadi. Maktada ota-onalar yig‘ilishlari tashkil etib, nafaqat bolalarning balki ota-onalarning ham savodxonligini oshirish uchun gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishga undab shunday deydi:

“-Jurnalga obuna bo‘lsangiz, uni har oy olib turasiz. Pochtalyon uyingizga olib kelib beradi.Jurnalda qiziq-qiziq hikoyalar, doktorlarning, o‘qituvchilarning maslahatlari bosaladi.Bundan tashqari, bolalarning kiyimlarini tikishni ham o‘rganishiz mumkin. Ba’zi ishirin taomlarni pishirish, xullasi, hamma narsani o‘rganishingiz mumkin.”<sup>152</sup>

<sup>151</sup> Uzpedia.uz

<sup>152</sup> Zunnunova S. Yangi direktor/ Tanlangan asarlar.-T., 2001.

Yangi direktorning asl maqsadi darslarning sifatini yaxshilash, yoshlarga zamonaviy bilimlarni yetkazish, maktablarda kuzatilgan adolatsizliklarga barham berish ekanligini anglamagan Barotov va Obidov singari ustozlar Sultonovaning bo‘ shatilishi uchun ne ne qing‘irliklarga qo‘ 1 urishadi. Ammo qissa yakunidaadolat qaror topadi va yangi rahbarning qanchalik halol, vijdonli, oqil va haqiqatparvarligi isbotlanadi. Bosh qahramonimiz Saodatxonda mujassamlangan bardosh, matonat, oqilalik, sadoqat, qat’iyatlilik, mehr shavqat , iroda va tirishqoqlik, uncha-muncha erkaklarda uchramaydigan jasurlik o‘ quvchilar qalbidan chuqur joy egallashiga asl sababchidir. Uning yangi rahbar sifatida kiritgan o‘ zgartirishlari jamiyatimiz uchun naqadar zarur amallar ekanligini hozir yana ham chuqurroq anglay olamiz. Sovet davrida bunday “yangiliklar” yaxshi qarshilanmagan bo‘ lsada Zunnunovaning bu mavzuda bemalol qalam sura olishi, adibaning o‘ zida ham asar qahramoni singari xislatlarning borligidan dalolatdir.

“Och yuzingni” qissasida ham bosh qahramon sifatida ayol obrazi ya’ni Adolatxon tanlangan. Adolatxon o‘ z davridagi ayollardan qat’iyati, sabri, aql-zakovati, o‘ z taqdiriga befarq emasligi va sadoqati bilan ajralib turgan. Ya’ni sho‘ ro davrida xalqimizga urf bo‘ lib qolgan qizlarning ilm olishiga qarshilik, ularni 14-15 yoshlarida boyroq insonga kundosh qilib tur mushga berish, o‘ z haq-huquqini talab qilib chiqqanlarning besabab o‘ limlariga duch kelish holatlari avj olgan davrda, barcha mashaqqaatlarni anglagan holda “oqimga qarshi” suza olgan qahramondir. Qissada xotin-qizlarning paranjilarini tashlab zamona bilan ham nafas bo‘ lishlari, ilm olish va kasb egallashlari zarurligi va eng avvalo jamiyatda ayollarning ham o‘ z o‘ rni borligini isbotlashlari kerakligi tasvirlangan. Asarning tub ma’nosiga nazar solsak, adiba xalqimizning sho‘ rolar zulmidan ozod bo‘ lishi uchun nafaqat erkaklarning balki ayollarning ham ilmli bo‘ lishlari lozimligini, ko‘ zimizdagи “pardа”ning paranji singari uloqtirilishini istaganligini anglash mumkin. Adolatxon, Usmonjon, Zebixon, Mo‘ ttixon singari xalq dardi bilan yashovchi qahramonlarning ilk odimlari ko‘ plab boshqa insonlar uchun namuna bo‘ lib, ma’rifat va ozodlik kurashini alangalatgan desak adashmagan bo‘ lamiz.

“Olov” va “Odamlar orasida” qissalarida asosan ikkinchi jahon urushi davrida xalqimiz boshidan o‘ tqazgan og‘ir va musibatli kunlar tasvirlangan. Ikkala qissada ham urushning ne ne kulfatlarga sabab bo‘ lgani, xalqimizning farzand, ota, aka va uka dardi bilan yonib turgan onda ham, front uchun jon-jahdlari bilan mehnat qilganlari aks ettirilgan. “Olov” qissasida Saida Zunnunova Shirmonxon obrazini asosiy qahramon sifatida tanlagan. Ushbu qissada Shirmonxon singari kuchli va matonatli Nodira, O‘ g‘iloy, Maqsuda obrazlari ham o‘ rin olgan. Kolxozchilar Shirmonxoni eri urushga ketganidan so‘ ng rais etib saylashdi, chunki uning qanchalik adolatparvar, mehnatkash, aql- zakovatli, kamtarin va mehribon ekanligini barcha bilardi. Erkaklar urushdaligi sabab kolxoza asosan ayollar, keksalar, yosh bolalar va urushdan yarador bo‘ lib qaytganlar mehnat qilishardi. O‘ zlari och , tinmay mehnat qilib bo‘ lsada frontdagilar uchun oziq-ovqat g‘amlashga barcha birdek bel bog‘lagan asar qahramonlarining har biri o‘ quvchilar qalbidan joy egallaydi. Orada kelgan “qora xat”lar insonlarning qalbida og‘ir bo‘ shliq hosil qilsada, bu ularni to‘ xtatolmas, balki vafot etganlarning ruhini shod etish

uchun ham yanada qattiq mehnat qilishardi. Shirmonxonning o‘g‘li Farhod ham urushda halok bo‘ladi va u raisning qalbida o‘chmas olovni alangalatadi. Barcha qiyinchiliklarga qaramay rais planlarni ortig‘i bilan bajarish orqali front ortidagilar g‘alabaga o‘z hissalarini qo‘shishadi. Qissa yakunida Farxodning qabri joylashgan Donbass ozod etilganligi va endi bemalol o‘g‘liing qabrini ziyorat qila olish imkoniyati Shirmonxon sabrining mevasi tariqasida tasvirlangan.

### **XULOSA**

Badiiy asarlarda ayollar obraziga o‘zgacha yondashib, ularni o‘z asarlarining bosh qahramonlari sifatida tasvirlagan adibalardan biri bo‘lgan Saida Zunnunova ayollar ichki dunyosiga va his tuyg‘ulariga alohida e’tibor qaratgan. Adiba qissa va hikoyalaridagi ayol personajlar chinakam o‘zbek ayollar portretini gavdalantirgan desak adashmagan bo‘lamiz. Boisi, uning istalgan nasriy va yoki nazmiy asarini olmaylik har birida ayollar sabr- matonat, sadoqat, mehr-muhabbat timsoli sifatida tasvirlangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. Uch tomlik.-T.:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976-1977.
2. Zunnunova S. Yangi direktor/ Tanlangan asarlar.-T.,2001
3. [https://uzpedia.uz/pedia/zunnunova\\_saida](https://uzpedia.uz/pedia/zunnunova_saida)
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)